

Admin | 110 ballik tizim

phys-tech.jspi.uz/index.php/art/article/view/5531

Главная / Архивы / Том 3 № 1 (2022): АЗИАТСКОЕ ИСКУССТВО / Articles

Опубликован 2022-03-29

МИЛЛУ МУСИҚА МАДАНИЯТИМИЗНИ О'РГАНИШИНИ ДАВР ТАЛАБИ

PDF (Ўзбекча)

Аннотация

Мақолада халқ мусиқа меросининг mazmunida o'z ifodasini topgan xalqimizning jiti moi- iqtisodiy, tarixiy, ma'naviy turmushi, hayoti y qarashlari, shu bilan birga umumbashariy g'oyalardan yosh avlod tahrirasida vama da samarali ifodalani sh kuzatish kuzatish

Авторы

Einaza Abdikarimova
Jizzax Davlat pedagogika instituti

Информация

Для читателей
Для авторов

Отправить материал

Очiq dars Di jirli...pdf

Без названия.png

Буфер обмена (1 из 24)
Объект не добавлен в буфер:
Удалите объекты для увеличения
Доступного места

EN 17:33 23.04.2022

<https://phys-tech.jspi.uz/index.php/art/article/view/5531>

MILLIY MUSIQA MADANIYATIMIZNI O‘RGANISHNI DAVR TALABI

Elnoza Abdukarimova,
JDPI, “Musiqqa ta’limi”
kafedrasi o‘qituvchi.

Annotatsiya: Maqolada xalq musiqqa merosining mazmunida o‘z ifodasini topgan xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ma’naviy turmushi, hayotiy qarashlari, shu bilan birga umumbashariy g‘oyalardan yosh avlod tarbiyasida yanada samarali ifodalanish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq musiqqa merosi, madaniy, ma’rifiy, ta’lim-tarbiya, umumta’lim maktablari, mumtoz, maqom, doston aytimlari, “ommaviy madaniyat”.

Respublikamiz ijtimoiy-madaniy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar jamiyatimizni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olishga mustahkam zamin yaratmoqda. Mana shunday o‘zgarishlar barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiya tizimida ham izchillik bilan amalga oshirilmoqdaki, bu ta’limni milliy asoslarda rivojlantirish va takomillashtirishda o‘z samaralarini berayotgani quvonarli holdir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan ta’lim-tarbiya ishlarini milliy asoslarda rivojlantirishning muhim tamoyillari, mazmuni va istiqbollari belgilab olindi. Shunga ko‘ra asosiy e’tibor ta’lim tizimida milliy madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizga ustuvor ahamiyat berish yosh avlod tarbiyasida ulardan keng foydalanishga qaratildi.

Bugungi kunda respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoevning bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada jonlantirish borasidagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish” chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi (2017- yil, 17-

noyabr) hamda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2018 yil, 28-noyabr) qarorlari muhim ahamiyatga egadir. Halqimizning milliy-madaniy merosini o‘rganishni yanada takomillashtirish vazifalari birinchi navbatda yosh avlodni ma’naviy yetuk, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bilan birga ularda vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizni, an’analарimizni sevish va qadrlash, ularni mehr bilan o‘rganish va faxrlanish tuyg‘usini kamol toptirishga xizmat qiladi.

Zero, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ardoqlash tuyg‘usi muqaddas va oliyjanob tuyg‘udir. Uning g‘oyaviy, badiiy-estetik ifodasi xalq musiqa merosi deb atalgan ulkan shajara uyg‘unlashgan musiqa folklori, mumtoz va maqom san’ati, xalq dostonlari kabi ko‘plab san’at turlarida o‘zining o‘chmas muhrini qoldirgandir.

Ulardan ta’lim va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish ta’limning milliy mazmunini boyitish va mustahkamlashda ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar milliy musiqiy meros va madaniy boyliklardan foydalanish ko‘lamini yanada takomillashtirishga zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Bu o‘rinda milliy musiqiy tarbiyada quyidagi jihatlarга e’tiborni kuchaytirishni lozim deb hisoblaymiz.

1. Musiqiy-estetik tarbiyaga halqimizning milliy musiqiy an’analari, milliy-madaniy qadriyatlarga tayangan holda yondoshish borasida izchillik va uzluksizlik tamoyiliga tayangan holda yondoshish.

2. Xalqimiz tarixi, an’analari, musiqiy an’analarda ifodasini topgan urf-odatları, turmush-tarzi, musiqa janrlari, mumtoz va maqom kuy qo‘shiqlari, dostonchilik aytimlarini talim-tarbiya mazmuniga chuqur va izchil kiritishning o‘ziga xos tamoyillari, pedagogik shart-sharoit va imkoniyatlari, mezon va metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

3. Xalq musiqa merosiga mansub musiqiy asarlarning tarbiyaviy va didaktik, umuminsoniy g‘oyalari, ularning ijrochilik xususiyatlarini yoritadigan

dastur, uslubiy qo‘llanmalarni yangidan davr ruhiga mos tarzda ishlab chiqish va barcha ta‘lim-tarbiya muassasalarini ta‘minlash.

4. Umumta‘lim maktablarining “musiqa madaniyati” fani o‘quv dasturlari va darsliklariga kiritilgan, kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan xalq musiqa merosiga oid asarlar repertuarini qayta ko‘rib chiqish, xalq qo‘shiqlari, mumtoz va maqom namunalari hamda dostonchilik aytimlari haqida bilim va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan o‘quv materiallarini muayyan sinf, chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga e‘tibor berish va amaliy ishlarga o‘tish.

5. Yuksak va murakkab ijod mahsuli bo‘lgan mumtoz va maqom kuy-qo‘shiqlarni o‘rganish ishlarni ta‘lim-tarbiya va madaniyat maskanlarida keng yo‘lga qo‘yish, ular vositasida amalga oshiriladigan ta‘limiy-tarbiyaviy ishlarni (ijodiy chiqishlar, ko‘rik-tanlovlar, festivallar) sinf va sinfdan tashqari shakllarini uzluksiz va tizimlilik tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yish.

6. Xalq musiqa merosi haqidagi ilmiy, badiiy va uslubiy manbalarni o‘rganish, targ‘ibot qilish, ularni ta‘lim muassasalarida o‘rganish, shuningdek musiqa ta‘limi uchun ajratilgan o‘quv soatlari hajmini ko‘paytirishning vaqti keldi va bu ishni ortiqcha paysalga solmaslik lozim.

Shuni e‘tirof etish joizki, o‘zbek xalq musiqa merosi ulkan ma‘naviy xazina bo‘lib, uning tarkibidagi og‘zaki an‘anadagi folklor kuy-qo‘shiqlar, mumtoz ashulalar negizida xalq og‘zaki ijodiyoki mumtoz she‘riyat namunalariga xos adabiy matn yotadi. Bu bebaho xazinaning yana bir qimmatli jihati zamonaviy kompozitorlarning ko‘pchiligining ulardan ilhomlanib yangi-yangi asarlar yaratib kelayotganligida ko‘riladi.

Mumtoz adabiyot vakillari tomonidan yaratilgan she‘riy asarlar yuksak ijod na‘munasi sifatida asrlar davomida halqimiz tomonidan e‘zozlanib kelinadi. Ularning badiiy asar sifatida yuksak mahorat va iste‘dod mevasi ekanligi, ular mazmunida ifodalangan g‘oyalar, ilohiy ishq ta‘rifi bayon etilgan lirik kechinmalar, nozik his-tuyg‘ular, g‘oyat nafis tasvirlar, o‘xshatishlar, tashbehlar, ranglar tavsifi, har qanday kishi qalbida o‘ziga xos ajib hissiyotlar uyg‘otadi. Bunday asarlarni har gal o‘qiganda bir-birini takrorlamaydigan tuyg‘ularni tuyasan

kishi. Shoirning betimsol hayoloti, o'z hayolotida siymosini chizgan mashuqasining oliyjanob fazilatlari-yu, kishi erkini zabt etuvchi tashqi ko'rinishi, harakatlari beixtiyor o'quvchining ham qalbini o'ziga rom etadi. Bunday she'riy matnga bastalangan kuy, musiqaaning sehrli ta'siri bilan uyg'unlashib, inson hissiyotiga kuchli emotsional ta'sir etishi bilan estetik tarbiyaning qudratli vositasiga aylanadi. Shuning uchun ham xalq musiqa merosidagi folklor va mumtoz musiqa asarlaridan ularning ma'naviy va estetik tarbiyaviy imkoniyatlaridan pedagogic maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra doimo go'zallikka intilib yashaydi. Go'zallikka intilish mayli bilan yashaydigan insonni yoshligidan go'zallik qonunlari bo'yicha tarbiyalash, ularda go'zallikni his etish, baholash, o'z munosabatini bildirish olishga o'rgatish, go'zallik yaratishga bo'lgan iste'dodini ro'yobga chiqishga imkoniyat yaratish estetik tarbiyaning bosh maqsadi va vazifasini belgilaydi.

Milliy nafosat va milliy axloq, milliy etika o'zbek xalqining, respublikamiz ma'naviy-ma'rifiy hayotining ravnaqida naqadar muhim va salmoqli ahamiyatga ega bo'lsa, estetik va axloqiy tarbiya ham yoshlarning ma'naviy barkamol, axloqiy yetuk, milliy qadriyatlarni teran his etuvchi, shaxs sifatida kamol topishida bebaho vositadir. Shuning uchun ham ma'naviy-estetik an'analardan, milliy qadriyatlar, milliy musiqiy merosdan unumli va o'rinli foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani muvaffaqiyatli bajarishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda turli texnik vositalar (internet tarmoqlari, telefon) orqali behayolikni, sharmsizlikni, quruq ohang bilan yo'g'rilgan "raqs" lar, shovqinli, baqiroq, yig'loqi nolalarni "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlar hayotiga kirib kelayotganligi, zamonaviy Estrada san'atidagi qo'shiqchilikni "internatsionallashuvi" (boshqa xalqlar musiqasiga taqlid, o'zbekchaga o'girish, ohangidan foydalanish, shularga mos hatti-harakat, qiliqlar bilan "bezalgan" kliplar) natijasida halqimizning chinakam milliy, betakror jozibasiga ega bo'lgan musiqiy an'analari, ijrochilik uslublariga ega bo'lgan san'ati o'rmini soxta, yengil-yelpi ohanglarga qiziqish mayllari egallab olayotganligi achinarli holdir. Bularning barchasi bugungi kunda ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, umumta'lim

maktablarida o‘quvchi-yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlarga hurmat, ularni qadrlash, qadriga yetish, o‘rganish va o‘zlarini ma’naviy ongi, tafakkuriga singdirishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek milliy maqom sanatin yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. 2017-yil, 17-noyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori. 2018-yil, 28- noyabr.

3. Abdullaev R. S. O‘zbek mumtoz musiqasi. O‘quv qo‘llanma. – T,:Yangi nashr, 2008 yil.

4. I.Qudratov. Talablarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. - T,: Fan, 2009-yil.

5. Abdukarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7 Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com

6. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash- musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim // . “Ilim ham jamiet” jurnal. -Nukus davlat pedagogika instituti, 2019, 1-son, -B 61-63.

7. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta’limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.